



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



YOSHLAR ONGIDA MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHDA FARG'ONA YOSHLAR ITTIFOQINING ROLI

Ahmadjonova Shaxnozaxon Rustamjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

akmadjonovashahnozaxon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda Farg'ona Yoshlar Ittifoqining so'nggi ikki yilda ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borgan faoliyati, yoshlar bilan muloqotda erishilgan yutuqlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar Ittifoqi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, vatanparvarlik, milliy g'urur, yoshlar, fidoiylik, kitobxonlik, ma'naviy tarbiya, samaradorlik.*

Bugungi globalashuv davrida yoshlar qalbida milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat va Vatanga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, Farg'ona viloyati Yoshlar ittifoqi yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'lida qator dasturlarni amalga oshirmoqda. Xususan, vatanparvarlik tadbirlari misolida Farg'ona shahrida o'tkazilgan "Men faxr bilan aytaman – men O'zbekiston farzandiman!" shiori ostidagi yoshlar mitingi yoshlarni yurt tinchligini asrash, mustaqillik qadriyatlarini anglashga chorlaydi. 2024-yil aprel oyida Farg'ona davlat universitetida o'tkazilgan "Jasorat maktabi" loyihasi doirasida harbiy soha vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazilib, yoshlar orasida vatan himoyachilariga hurmat tuyg'usi oshirildi.²³ Bundan tashqari, "**Qahramonlar izidan**" **harbiy-vatanparvarlik sayohati orqali** Farg'ona Yoshlar Ittifoqi viloyatdagi o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini "Ikkinchi jahon urushi faxriylari" uylariga olib borib, ularga jasorat va fidoyilik timsoli bo'lgan insonlar hayotini namuna sifatida ko'rsatmoqda. Bu yoshlar ongida Vatan tinchligi uchun har bir fuqaroning mas'uliyatini his etish tuyg'usini uyg'otadi.

Yoshlar ittifoqi tashabbusi bilan Farg'ona viloyatida tashkil etilgan "Yoshlar bog'i", "Obod mahalla – yoshlar bilan" aksiyalari yoshlarni o'z yashash joyini obod qilishga, yurt ravnaqi uchun mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatmoqda. "Yoshlar daftari" dasturi orqali minglab farg'onalik yoshlarga kasb-hunar o'rganish, ta'lim olish va tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun yordam ko'rsatilib kelinmoqda. Masalan, Farg'ona tumani "Yoshlar texnoparki"da yoshlar tikuvchilik, sartaroshlik, dasturchilik kabi yo'nalishlarda bepul ta'lim olib, o'z kasbiga ega bo'lishmoqda. Bu ularni mehnatsevar va mustaqil hayot kechiruvchi, Vatanga foydali fuqarolar sifatida tarbiyalaydi, shu jumladan, ularda "Men ham yurtimga foyda keltira olaman" degan milliy g'urur hissini kuchaytiradi, **Yoshlar Ittifoqi tadbirlari**

²³ Farg'ona Yoshlar ittifoqi rasmiy veb-sayti: <https://www.fargonayoshlar.uz>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



doirasida “Ma’naviyat posbonlari” loyihasi ham mavjud bolib, mazkur targ’ibot yoshlarni ekstremizm, missionerlik va yot g‘oyalardan himoya qilish maqsadida o‘tkaziladi. **Masalan:** Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarida imom-xatiblar, olimlar va yoshlar ishtirokida “Yoshlar va ma’naviy immunitet” mavzusida seminarlar bo‘lib o‘tgan.

Farg‘ona viloyati Yoshlar ittifoqi yoshlarning bilimni, ma’naviyatini va intellektual salohiyatini oshirish maqsadida ta’lim sohasida qator samarali ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu yo‘nalishdagi tadbirlar yoshlarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘z kasbini to‘g‘ri tanlashiga ko‘maklashish, kitobxonlikni targ‘ib etish va o‘qish madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shu jumladan, 2024-yil mart oyida Farg‘ona viloyatida “Uch avlod” zakovat tanlovi tashkil etildi. Unda professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari, oliy ta’lim talabalari hamda harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi yoshlar jamoalari ishtirok etdilar.

Tanlovning asosiy maqsadi - yoshlarning bilim darajasini oshirish, mantiqiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, turli avlod vakillari o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni mustahkamlashdan iborat bo‘ldi. Tadbir yakunida g‘olib jamoalar faxriy yorliqlar va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar. 2025-yil aprel oyida “Ta’lim, kitobxonlik va ijod” nomli ma’rifiy uchrashuv tashkil etildi. Tadbirda viloyatdagi maktab bitiruvchilari, o‘qituvchilar, oliy ta’lim vakillari va ijodkor yoshlar ishtirok etdilar. Uchrashuvda yoshlar uchun oliy ta’lim muassasalarida yaratilayotgan sharoitlar, yangi grant dasturlari, xorijiy hamkorlikdagi o‘quv loyihalari haqida ma’lumot berildi. Shuningdek, Yoshlar ittifoqi tomonidan “Kitobxon yoshlar” tashabbusi doirasida 2500 dan ortiq kitob maktab va kollej kutubxonalariga topshirildi. Bu tashabbus ko‘plab yoshlar orasida kitobxonlikni targ‘ib etish hamda ularning kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini yuksaltirishga turtki bo‘ldi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o‘zining intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbaai esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda.”²⁴ Aynan shu jihatdan ham, Yoshlar ittifoqi o‘z faoliyati doirasida kitobxonlikni targ‘ib etuvchi loyihalarga ko‘proq urg‘u beradi.

Bir so‘z bilan aytganda, Farg‘ona Yoshlar Ittifoqi nafaqat yoshlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlabgina qolmay, balki ularning qalbida milliy g‘urur, Vatanga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishda faol rol o‘ynamoqda. Misol tariqasida o‘tkazilayotgan madaniy-ma’naviy loyihalar, tarixiy shaxslar nomidagi tadbirlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari bu yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nafaqat yoshlar, balki butun o‘zbek xalqining ma’naviy kamol topishida, dunyoqarashi yuksalishida asosiy omillardan biriga aylanib ulgurdi.

²⁴ Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-fevralda Ankaradagi Nation’s Library (Turkiya) ochilish marosimidagi nutqi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20- fevralda Ankaradagi Nation’s Library (Turkiya) ochilish marosimidagi nutqi

2. Abdullayev, Sh. Yoshlar tarbiyasida milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhining roli. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti. 2018

3. Axmedov, B. Yoshlar va ijtimoiy faollik: nazariya va amaliyot. Farg‘ona: Farg‘ona Davlat Universiteti Nashriyoti. 2020.

4. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. *Yoshlar va vatanparvarlik dasturi*. Toshkent: Rasmiy nashr. 2022

5. Farg‘ona Yoshlar Ittifoqi rasmiy veb-sayti: <https://www.fargonayoshlar.uz>

